

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: Primqulov B., Mahmudov Sh., Bobojonov D., Isroilova M.,
Shomurodova N., Sobirjonova M.

Mavzu: Dissertatsiya ishini rasmiylashtirish va himoya jarayoni

Guruh: Mxt 2, Magistratura ta'lim boqichi

O'qituvchi: Sodiqova Baxtigul

Sana: 20.10.2025

Darsning maqsadi: Talabalarga “Dissertatsiya ishini rasmiylashtirish va himoya jarayoni” mavzusida akademik muhitda qo'llaniladigan ingliz tili o'rtasidagi farqlar bilan tanishtirish, ularning til birliklarini kontekstga mos ravishda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

O'qituvchi mavzuni e'lon qildi, darsning maqsadi va vazifalarini tushuntirdi. Talabalar bilan “Dissertatsiya ishini rasmiylashtirish va himoya jarayoni” mavzusida qisqa suhbat o'tkazildi. Dars jarayonida ayniqsa mavzuga oid termindan keng foydalanish, kontekstdan umumiy ma'noni chiqarish yo'llari ham keng tushuntirib berildi.

Guruhlar matnni terminlardan foydalanib to'g'ri joylashtirib shakllantirishga harakat qilishdi. O'qituvchi va talabalar har bir guruh ishini tahlil qilib, afzallik va kamchiliklarni muhokama qildilar.

Darsning yakuniy qismida talabalarning fikrlari tinglandi: “Bugungi mashg'ulot sizga nimani o'rgatdi?” O'qituvchi darsni umumlashtirdi: mavzu doirasida talabalar so'z boyligini kengaytiradi, turli matn turlari bilan ishlaydi, professional va akademik vaziyatlarda ingliz tilidan maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Amaliy mashg'ulotlarda Academic Englishning esa ilmiy-analitik, izohli, dalillarga tayangan uslubiy jihatlarini solishtirib tahlil qilishni o'rgatadi. Dars interfaol tarzda, yuqori faollik va qiziqish

bilan o'tdi. Ushbu ochiq dars orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlashdi.

Kafedra qarori:

1.O'qituvchi: Sodiqova Baxtigul Dissertatsiya ishini rasmiylashtirish va himoya jarayoni mavzusidagi mahorat darsi ma'qullansin.

2. O'qituvchi Sodiqova Baxtigulning o'tkazgan ochiq darsi talabga javob beradi va yuqori darajada tashkil etildi, deb hisoblansin.

Kafedra mudiri:

D.Tog'aymurodov

Kotiba:

I. Choriyeva





